

## FANLAR INTEGRATSIYASIDA YANGI PRAGMATIK PARADIGMALARINING ANTROPOLINGVISTIK ASPEKTI

**Rahimov Usmonjon Ergashevich,**

*Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

E-mail: [usmonjonrahimov1961@gmail.com/](mailto:usmonjonrahimov1961@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fanlarning interatsiya integratsiya jarayoni, antropolingvistik nazariyalarning va tilning "inson+til+olam" modeli asosidagi tadqiq yo'nalishlari, bugungi kundagi ustivor yo'nalishlar, mental paradigmaning sistemaviy xususiyati, lingvopragmatik yo'nalishlarning tasnifiva rivojlanishi yoritilgan. Konnotativ, okazional, emotiv, enantisemik, polisemik, monosemik pragmatika, sinonimopragmatika, antonimopragmatika, omonimopragmatika, paronimopragmatika, jargonopragmatika kabi yo'nalishlarning paydo bo'lishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, mental bilish, antropolingvistika, pragmatic paradigm, kognitiv paradigm, morfopragmatika.

**Abstract.** This article explores the processes of interdisciplinary integration, the research directions of anthropolinguistic theories, and the study of language based on the "human + language + world" model. It highlights contemporary priority areas, the systematic nature of the mental paradigm, as well as the classification and evolution of linguopragmatic trends. The analysis focuses on the emergence of various pragmatic branches, including: lexical - semantic pragmatics: connotative, occasional, emotive, enantiosemic, polysemic, monosemic, synonymo-pragmatics, antonymo-pragmatics, homonymo-pragmatics, and paronymo-pragmatics. Sociolinguistic-stylistic pragmatics: jargonopragmatics and nekronymopragmatics.

**Keywords:** integration, mental cognition, anthropolinguistics, pragmatic paradigm, cognitive paradigm, morphopragmatics.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются процессы взаимодействия и интеграции наук, исследовательские направления антропологических теорий и языка на основе модели «человек + язык + мир», а также современные приоритетные направления исследований. Освещаются системные особенности ментальной парадигмы, классификация и развитие лингвопрагматических направлений. Анализируется возникновение таких направлений, как коннотативная,okkazionale, эмотивная, энантиосемическая, полисемическая, моносемическая прагматика, а также синонимопрагматика, антонимопрагматика, омонимопрагматика, паронимопрагматика и жаргонопрагматика.

**Ключевые слова:** интеграция, ментальное познание, антропологистика, прагматическая парадигма, когнитивная парадигма, морфопрагматика.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Tilshunoslik bugun mental bilish bosqichiga ko'tarildi. Ushbu bosqichga ko'tarilgunga qadar bir qancha jarayonlarni boshidan kechirdi[1.]. Tilni turli jihatlari asosida tadqiq etish evolyutsion rivojlanib[2.], bugungi holatiga yetib keldi. Tilshunoslik yangi yutuqlar bilan boyidi va takomillashdi[3]. Demak, tilshunoslik mental bilish bosqichida antropolingvistik nazariyalar asosida rivojlanmoqda. Antropolingvistikada inson omili bosh planda turganligi uchun "inson – til - olam" modeli yetakchilik qilmoqda. Bunday modelda pragmatik paradigm ustivorlik qiladi[2.].

Qadimgi davrlardan boshlab har qanday fan o'zi yakka holda rivojlana olmasligi haqidagi qarashlar o'rganilib kelinmoqda[3.] va fanlar integratsiyasi turli jihatdan tadqiq etilmoqda[7.3.]. Tadqiqotlar natijasida intralingvistik va ekstralingvistik paradigmalarining

dinamik yoki statik bo'lishi izohlandi[8.]. Ana shunday tadqiqotlarga ko'ra tilshunoslikning muayyan davrlarida ustivor bo'lgan paradigmalarda ilmiy gorizontalning o'zgarishi bilan o'z ustivorligini yo'qotib, ma'lum bir masalalarni yecha olmay qoladi va o'z o'rnini yangi paradigmaga bo'shatib beradi. Antropolingvistik nazariyalarning rivojlanishi natijasida ana shunday yangi paradigmalarda maydonga keldi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Sistem-struktur paradigma fokus markazi sifatida til – belgilar tizimini olib, tilning ichki qurilishi(fonema, morfema, so'z shakli, sintaktik tuzilishlar)ni o'rganish tamoyilidan bordi va unda inson omili hisobga olinmadi. Bu yo'nalishlardan matnni faqat grammatik va sintaktik qurilish sifatida o'rganilgan materiallari olindi.

Antropotsentrik paradigma (o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov va N.Mahmudovlar tomonidan asoslangan) fokus markazi sifatida inson va uning ongi olinib, til insonning dunyoni anglash va ifodalash quroli tamoyilidan borildi. Tadqiqotimizning asosiy fokus markazi sifatida olingan matnning kontseptologik va pragmatik tabiati shu paradigma orqali ochilishi aniqlandi va shu yo'ldan borish bosh maqsad qilib belgilandi.

Hozirgi kunda kognitiv paradigma, pragmatik paradigma deb nomlangan paradigmalarda ustivorlik qilmoqda. SHuning uchun til va nutq oppozitsion sistemasi tadqiqi kuchaydi. Natijada tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan integratsiyasi isbotlandi[5.]. Tilshunoslik fani integratsiyasida mental paradigma bir nechta paradigmalarning o'zaro sistemaviy butunligini anglatadi. Bu paradigmani pragmatik paradigma deb atash mumkin. CHunki tilning amaliy jarayonini(nutq, diskurs, vaziyat), mental voqelanish(psixologik, sotsiologik, neyrologik, fiziologik, sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv, genderologik), pedagogikopragmatik, didaktikopragmatik, teopragmatik, etnopragmatik, melodopragmatik, kulturopragmatik, va.h... )ni tadqiq etishi pragmatik paradigma deyishimizga asos bo'ladi. Demak, fanlarning pragmatik integratsiyasida pragmatik paradigma yetakchilik qiladi. Ularning birlashtiruvchi uzvlari(kesishuv nuqtasi)da gibril yo'nalishlar paydo bo'ladi. Bunday yo'nalishlar barcha fanlar doirasida yuzaga kelishi mumkin va bu ob'ektiv qonuniyat hisoblanadi. Ayniqsa bunday jarayon turdosh fanlar doirasida ko'proq kuzatiladi.

Ilmiy tadqiqotimizda antropotsentrik nazariya asosida har qanday fan pragmatik integratsiyaga uchrashi va yangi pragmatik paradigmalarda paydo bo'lishi tadqiqi asosiy maqsadimizdir. Bu paradigmalarda birliklar fokus(qaysi tomondan ko'inishi)i va rakurs(qaysi tomondan kuzatish)i jihatidan farqlanib, etalonlik kasb etishi hamda muayyan fan pragmatik paradigmaga aylinishi tadqiq etiladi. Bu esa fanning ko'p qirrali ekanligini isbotlaydi va brilliantlik darajasiga ko'taradi(brilliantning qancha qirrali ko'p bo'lsa, qimmat shuncha yuqori bo'ladi). Shuning uchun har qanday fanni bir fokus va bir rakursdan kuzatib, baho berish noxolis xulosaga olib keladi. Ko'p fokus va ko'p rakurslilik tamoili asosida tadqiq etish esa bir qancha chalkashliklarga chek qo'yadi. SHu jihatdan tilshunoslik fanini ham yuqoridagicha tamoil usulida tadqiq etish bir qancha muammolarni

hal qilinishiga yordam beradi, degan ilmiy gipotezani qo‘ydik. Bu gipotezani isbotlash jarayonida pragmatika, kontseptologiya, presuppozitsiya o‘rtasida mantiqiy va tizimli aloqa modellashtiriladi. Bu gipotezani tilshunoslik fani doirasida quyidagicha isbotlashimiz mumkin.

Antropolingvistik nazariyalarning ustivorlik kasb etishi natijasida tilshunoslikda pragmalingvistika yo‘nalishi yuzaga keldi[9. 172.]. Til va nutq zidlanishidagi tamoillar pragmatik paradigma usulida tadqiq etila boshlandi[13.]. Natijada tilshunoslik fanining pragmatik integratsiyasida yuzaga keladigan kesishuv nuqtasidagi(stik) yo‘nalishlar tadqiqi kuchaydi. Bu yo‘nalishlarning tadqiqida “inson-olam-til”, “inson-madaniyat til”, “inson-ma’naviyat-til” modellar ustivorlik kasb etdi. Bu modellar orqali bir qancha fanlarning pragmatik integratsiyasini amaliy isbotlash yo‘li topildi.

Ko‘pparadigmallik yoki pragmatik flyuralizm[11. 36-38.] asosida tilshunoslik(til va tilshunoslikni farqlash lozim) bir qancha pragmatik paradigmalar butunligidan tashkil topgan makrosistema ekanligi aniq bo‘lib qoldi. Antropolingvistik nazariyalarga asosan pragmatika[12.] va pragmalingvistika assotsiatsiyasi yuzaga keldi. Tilshunoslikning tekshirish ob‘ekti til bo‘lganligi uchun til birliklarini pragmatik paradigma asosida tahlil etish bir qancha muammolarga oydinlik kiritdi, chalkashliklarga barham berdi. Til birliklarini pragmatik paradigma orqali tahlil etish quyidagi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga va asoslanishiga turtki bo‘ldi. Ularni quyidagicha belgilashni taklif qilamiz.

Kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi pragmatik paradigmanning ustivorligini ta‘minladi[10.]. Natijada tilshunoslikning o‘z ichida bir qancha yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Pragmatik paradigma asosida fonopragmatika maydonga keldi. Bugungi kungacha bo‘lgan tadqiqotlarda fonopragmatika umumiy tarzda izohlandi, lekin uning ichki bo‘linishlari tahlilda ajratilmadi.

Leksikologiyada leksik ma‘no, pragmatikada pragmatik ma‘no farqlash birligi bo‘lganidek, fonopragmatikada ham tovushlarning pragmatik ma‘no anglatishi asos bo‘ladi. Pragmatik ma‘no ifodalovchi fonemalarning turiga qarab, fonopragmatikaning ichki bo‘linishini izohlash mumkin. Fonemalar orqali pragmatik ma‘no yuzaga chiqishini tadqiq etuvchi “unli fonemalar pragmatikasi (vokalizmopragmatika)”, “undosh fonemalar pragmatikasi (konsonantopragmatika)”, assonansopragmatika, porosodikopragmatika, assimilopragmatika, dissimilopragmatika, elizopragmatika, epentezopragmatika, metatezopragmatika kabi turlarga ajratishni taklif qilamiz.

Tilning leksik birliklarni pragmatik paradigma orqali tadqiq etish natijasida leksikopragmatika[14.] yuzaga keldi. Bugungacha bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda leksikopragmatika umumiy tarzda tadqiq etildi, lekin ichki bo‘linishlari tahlildan chetda qoldi. Bizningcha, leksikologik birliklarning pragmatik ma‘no ifodalashini o‘rganuvchi quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir;

Konnotativ, okazional, emotiv, enantisemik, polisemik, monosemik pragmatika, sinonimopragmatika, antonimopragmatika, omonimopragmatika, paronimopragmatika, jargonopragmatika.

SHuningdek, morfologopragmatika yoki morfopragmatika sohasi ham mavjud va ularni quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Affiksopragmatika, ot pragmatikasi, sifat pragmatikasi, son pragmatikasi, olmosh pragmatikasi(deyktopragmatika), fe'l pragmatikasi, ravish pragmatikasi, yuklamalar pragmatikasi, bog'lovchilar pragmatikasi, komakchilar pragmatikasi, taqlid so'zlar pragmatikasi, undovlar pragmatikasi, modal so'zlar pragmatikasi kabi turlari mavjud.

**Tadqiqot natijalari.** Shuningdek, sintaksopragmatika sohasi mavjud bo'lib, unda ham pragmatik ma'noga ishora qiluvchi sintaktik birliklar asosida quyidagi turlarga ajratish ma'qul. So'z birikmasi pragmatikasi, sodda gaplar pragmatikasi, qo'shma gaplar pragmatikasi, gap bo'laklari pragmatikasi, atov gaplar pragmatikasi, undov gaplar pragmatikasi, darak gaplar pragmatikasi, so'roq gaplar pragmatikasi, his-hayajon gaplar pragmatikasi, ko'chirma gaplar pragmatikasi, kirish so'lar, birikmalar, kiritmalar pragmatikasi, egzistentsional pragmatika, deyksis pragmatikasi, ergash gaplar pragmatikasi, ajratilgan bo'laklar pragmatikasi.

Bulardan tashqari matn pragmatikasi yoki tekstopragmatika yo'nalishi ham mavjud bo'lib, ularni diskursopragmatika deb ham ataladi. Bunday nomlanish matnni til birligi yoki nutq birligi sifatida talqin etish asosida yuzaga kelgan. Biz pragmatik yondashganligimiz uchun nutq birligi sifatida tadqiq etamiz va uning turlarini belgilashda ham shu tamoyildan boramiz.

SHu jihatdan matn turlarini biz pragmatik mazmuniga mos holda quyidagi tuzilishlarga ega bo'lishi va shu tuzilishlar asosida turlarga ajratishni va o'rganishni tavsiya qilamiz. Ular quyidagilar:

1. Lisoniy matn(bir tovushli, bir so'zli, sodda gapli, qo'shma gapli, bir abzasli, ko'p abzasli, ilmiy, badiiy(nazmiy, nasriy), publitsistik, monolog, dialog, polilog, rasmiy-ijtimoiy, askiya, intermediya)lar va ularning pragmatikasi.

2. Video-audio matn(hujjatli film, badiiy film(serialar), axborot-yangilik, shou dastur, badiiy-kompozitsion va publitsistik ko'rsatuvlar, teleintermedialar, multfilmlar, multimediali video-audio dastur, videodarslar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi video-audio dasturlar, tashhis dasturlar, videoocherklar, audiodarslar, multimediali animatsion o'quv dasturlar, svetoforlar, ashula, raqs, musiqa, signal va h.k)lar va ularning pragmatikasi.

3. Badiiy-grafika matn(portret, natyumort, peyzaj, badiiy-kopozitsion polotno, badiiy-foto, haykaltaroshlik asarlari, yo'l belgilari, piktografik ko'rsatkichlar, ko'rgazmali o'quv qurollari, ko'rgazmali reklamalar, ma'naviy-ma'rifiy ko'rgazmali vositalar)lar va ularning pragmatikasi.

4. Retro buyum matn(tarixiy anjomlar(pichoq, qilich, miltiq, televizor, radio, arxeologik topilmalar, milliy-hunarmandchilik buyumlar, kashtalar, milliy kiyimlar,

arava, mashina, dehqonchilik asboblari, uy-ro'zg'or buyumlari), tarixiy binolar, tarixiy kitoblar, tarixiy gazetalar, dizayn umumlashma, landshaftlar, arxitektorlik umumlashmalar, sxema va jadvallar, alifbo va h.k.)lar pragmatikasi.

5. Fokus matn va rakurs matn(ko'z bilan sinxron ko'rilgan predmet, ob'ekt, sub'ekt, pantomimo va h.k.)lar va ularning pragmatikasi.

6. Sezgi a'zolari(ta'm bilish orqali anglash, teri orqali anglash, xid bilish orqali anglash va h.k) orqali anglangan matnlar va ularning pragmatikasi.

**Xulosalar.** Demak, antropotsentrik paradigma makrosistema bo'lib, fonopragmatik, leksikopragmatik, morfopragmatik, sintaksopragmatik, kontseptologik paradigmalar – mikrosistemalar butunligi hisoblanadi. Ularning o'ziga xos xusuiyatlari kognitiv-pragmatik paradigma, kontseptologik paradigma, lingvopragmatik paradigma orqali namoyon bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қаранг: Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. Т.,2008., Тилшунослик назарияси. Т., 2008., Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Т., 2009.
2. Қаранг: Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.
3. Қаранг: Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т.,
4. Қаранг: Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 4-сон, 27-30- бетлар. Тилшунослик ва табиий фанлар. Т., 2002 йил.
5. Қаранг: Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-2-жилд. Тошкент, 2010 йил.
6. Бозаров О. Танланган асарлар. 1-жилд. Т., 2023 йил, 3-8-бетлар.
7. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М., 1975. – С.3.
8. Қаранг: Раҳимов А. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш (ўзбек тили мисолида). НДА. – Тошкент, 2009.
9. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент. Академнашр, 2013. -172 б.
10. Қаранг: Сафаров Ш. Прагмалингвистика – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008, Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
11. Қаранг: Раҳимов А. Methodological reflection in linguistic typology (samples of quantitative approach). Объединенный научный журнал. - 2008. - № 12 (218). – Москва, 2008. - Б. 36-38,
12. Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғона, 2020.
13. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.
14. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... – Тошкент: Академнашр, 2012.
15. Қаранг: Брат Р. Лингвистика текста// Новое зарубежной лингвистике. Вып.8. Лингвистика текста., М.,1978., Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования.М.,1981., Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методический аспекты. М., 1981.
16. <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/35>;  
<https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/8528/8266>.